

# **TALABALAR KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.**

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ.**

### **PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES.**

**A.Qodiriy nomli JDPI maktabgacha  
ta'lif metodikasi kafedrasini dots. G.Kushakova  
1-kurs magistr G.Muqimova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalar kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg`ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo`lishi xaqida ma'lumotlar bayon qilingan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о развитии творческих способностей учащихся, о том, как креативность человека отражается в его мышлении, общении, эмоциях, отдельных видах деятельности.

**Annotation:** This article provides information about the development of students' creative abilities, about how a person's creativity is reflected in his thinking, communication, emotions, and certain activities.

**Kalit so'zlar:** talaba, kreativlik, qobiliyat, rivojlantirish, shaxs, tafakkur, muloqot, his-tuyg`ular, muayyan, faoliyat, ma'lumotlar.

**Ключевые слова:** студент, творчество, способность, развитие, личность, мышление, общение, эмоции, конкретика, активность, информация.

**Key words:** student, creativity, ability, development, personality, thinking, communication, emotions, specifics, activity, information.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar ta'lif sohasini tubdan isloq qilish, uni o'tmishdan

qolgan mafkuraviy qarashlardan xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Shu bois O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori qabul qilindi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo’lib o’tgan yig’ilishda maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to’la qamrab olish bo’yicha muhim vazifalar qo’yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat — O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5198-sonli Farmoni hamda “O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi. Chunki, shaxs kamolotining asosiy mezoni sanalgan ma’naviyat bolalarni uzluksiz ta’lim jarayonida ham o’z ta’sirini ko’rsatadi.

**Kreativlik** (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g`oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma`nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg`ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo`ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o`tkirlikni belgilab beradi.

P.Torrens fikricha, kreativlik: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o`zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o`zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta`sirchanlikni ifodalaydi.

Shaxs ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishga asosiy metodologik va kontseptual yondashuvlar, kreativ shaxs individual sifatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari, uzlusiz ta`lim tizimida pedagoglar kasbiy ijodkorligini tashkil etish texnologiyalari bilan bog`liq masalalar yoritilgan.

Bilish faoliyati ko`p qirrali, murakkab jarayon bo`lib, uning ta`limni amalga oshirishdagi samaradorligi pedagog qobiliyati, izlanuvchanligi, tafakkuri, kuzatuvchanligi va ijodiy yondashuviga bog`liq. Shuning uchun ham bilish jarayonida ijod muhim o`rinni egallaydi.

Ijod – insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan yangilik yaratishi bilan bog`liq murakkab psixologik jarayondir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, ijodda bilim, tajriba, iste`dod namoyon bo`ladi.

Abu Nasr Forobiyning ta`rifiga ko`ra «ijod – bilish jarayonida shunday ulug` fazilatki, inson uni egallah uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak». Ijod qilish jarayonida shaxs izlanadi, kuzatadi, tadqiqotlar olib boradi, natijalarni tahlil qilib, mantiqiy xulosalar chiqaradi.

Ijodkorlik fan va amaliyotda ma`lum bo`lmagan yangi g`oyalarni pedagogning tahlil qilishi, turli yangi texnik ijodiy echimlarni o`rganishi, ishlab chiqishi, sinab ko`rishi va taqqoslashi kabi tadqiqotchilik tavsifidagi vazifalarni amalga oshirishni ifodalaydi. Bu jarayon pedagogning bilim saviyasini oshiruvchi va mustahkamlovchi, faol va mustaqil fikrlash xislatlari, ma`naviy-ma`rifiy saviyasi sezilarli o`sishiga va kelajakda haqiqiy ijodkor shaxs bo`lib etishishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Ijodkorlik shaxsda mustaqil fikrlash sifatlari namoyon

bo`lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanib, uni quyidagi belgilariga ko`ra tasniflash mumkin: ijod turi (texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma`naviy, pedagogik, didaktik, kasbiy, aralash); ijod darajasi (mono ijod, mul`ti ijod, mega ijod); ijod qamrovi (ixtisoslik, mutaxassislik, bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro); ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o`rta muddatli, uzoq muddatli); ijodning shakli (innovatsion, ilmiy-tadqiqotchilik, ta`limiy, investitsion, aralash); umumiy jihatlariga ko`ra (yangi g`oyalarni hayotga tatbiq etish; printsipial jihatdan yangi echimlarni ilgari surish; yangilikni amaliy qo`llash); yaratilgan ijod mahsulining ma`nosи va murakkabligiga ko`ra (ratsionalizatorlik taklifi; ixtiro; kashfiyat).


### **KREATIVLIK SIFATLARI**

- muammolarni ilg`ash va shakllantirish;
- yangi g`oyalarni yaratish;
- g`oyalarni uyg`unlashtirish;
- nostandard yechimlar yaratish;
- ob`yektlarni takomillashtira olish

Pedagog shaxsining fikrlashi rivojlanishiga qadim zamonlardan buyon e'tibor qaratib kelinadi. XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran yuqori darajali amaliy intellekt va fikrga ega bo'lgan mutaxassislarga ehtiyoj keskin orta boshladи.

Ilmda ilgari surilayotgan g`oyalarning yangilik darajasi bo'yicha olimlar fikrning a) reproduktiv (qayta tiklaydigan) va b) produktiv (ijodiy) kabi ikki darajasini ajratiladi.

Kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi:



Xulosa qilib aytganda har bir kasb o`z mazmuniga maxsus yondashuvni va kasbiy faoliyatning u yoki bu funktional vazifasiga ko`ra maxsus shakllanishini talab qiladi. Pedagogik faoliyat pedagog-mutaxassisning fikrlashiga alohida talablar qo`yadi. Negaki, pedagogning mustaqil fikrlash darajasi uning o`quvchi va talabaari mustaqil fikrlashini yuzaga keltiradigan asosiy omildir.

#### Adabiyotlar ro`yxati

1. KG Egamkulovna **Pedagogical conditions for the formation of tolerant thinking in youth in the family environment**  
- Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 2021
- 2.G Kushakova **THE CONCEPT OF TOLERANCE AS ONE OF THE ESSENTIAL REQUIREMENTS OF HUMAN PERFECTION**  
- European Journal of Research and Reflection in ..., 2019
- 3.G.Kushakova .Tolerant Schoolchildren - The Future Of Promising Uzbekistan, Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Scopus) 1859-1862 Б.